

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

YOZUVCHI NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA MIFOLOGIZIM VA HAQIQATLAR

Bahodir JOVLIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290900>

Annotatsiya: Adib Nazar Eshonqul ijodida mifologizm alohida o'rin tutadi. Uning deyarli barcha asarlarida mifologik yondashuvni ko'rish mumkin. Mazkur maqolada yozuvchi Nazar Eshonqulning asarlaridagi mifologizmlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nazar Eshonqul, mifologizm, mif, yozuvchi, hikoya.

Аннотация: В творчестве писателя Назар Эшонкула мифологизм занимает особое место. В его почти всех произведениях можно увидеть мифологический подход. В данной статье рассматриваются мифологизмы в произведениях писателя Назар Эшонкула.

Ключевые слова: Назар Эшонкул, мифологизм, миф, писатель, рассказ.

Annotation: In the works of the writer Nazar Eshonkul, mythologism occupies a special place. A mythological approach can be seen in almost all of his works. This article discusses the mythologisms in the works of the writer Nazar Eshonkul.

Keywords: Nazar Eshonkul, mythologism, myth, writer, story.

Yozuvchi Nazar Eshonqul jahon adabiyoti mifologik uslublarini milliy nasrga mahorat bilan sintez qila olgan adiblardan biridir. Uning hikoya va qissalarida dunyo adabiyotiga xos mifologik talqinlar, mifologik modullashtirishning u yoki bu xususiyati, jihatlari, ko'rinish yoki stilistikasiga duch kelamiz. Mif – she'riy, nasriy, qo'shiq, naql, aytim shaklida bayon etiluvchi dunyoni anglash, qabul qilish ifodasi. Shu sababli mifning o'zi bu hali adabiy uslub emas, balki adabiy uslub yaratish uchun eng qulay, asarga ramziy-timsoliy, ko'p ma'noli poetik qatlam bag'ishlaydigan vositadir.

XX asr adabiyotida Mif adabiy uslubning ajralmas turiga aylandi. Shuning uchun mifik ijod bilan mifologik poetika ko'p jihatdan uyg'un va o'xshash bo'lsa-da, biroq eng muhim nuqtasiga ko'ra, ular bir-biridan keskin farq qiladi. Zero, ajdodlarining mifologik ijodi bu – stixiyali, anglanmagan emotsional-hissiy ijod jarayon bo'lsa, yozma adabiyotdagi mifologizm - ijodkor tomonidan anglangan, ongli ravishda qo'llangan uslubdirki, bu holat yozma adabiyot mifopoetikasini dastlabki jamoa bo'lib yaratilgan mifologik ijod jarayonidan ajratib turadi.

Har bir ijodkorning badiiy-falsafiy dunyosini tahlil qilishda eng ishonchli manba bu adibning o'z asarlari hamda adabiy qarashlaridir. Shuning uchun Nazar Eshonqul ijodini o'rganishda adibning “Mendan “men”gacha” hamda “Ijod falafasi, mendan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“men”gacha-2” [1] kitoblariga kirgan ijod, uning mohiyati, dunyo adabiyotidagi usul va uslublari, oqimlar, dunyo adabiyotida maktab yaratgan namoyandalari haqidagi mushohadalari adibning badiiy-estetik qarashlarini namoyon qilishi bilan ahamiyatlidir. [2] Nazar Eshonqul bu ikki kitobida dunyo adabiyotning 50ga yaqin adiblari ijodi va asarlari haqida bugungi adabiy tanqidchilik e’tiborini tortadigan fikr-mulohazalarni o’rtaga tashlaydi. Adib qalamga olgan, o’rgangan, tadqiq qilgan, fikr bildirgan yapon yozuvchisi Ryunoske Akutagava, nemis adibi Tomas Mann, irlandiyalik ijodkor Jeyms Joys, fransuz yozuvchisi va faylasuflari Frans Kafka, Albert Kamyu, Semyuel Bekket, dramaturg Ejen Ionesko amerikalik adiblar Uilyam Folkner, Tomas Eliot kabi dunyo adabiyotida o’z maktabini yoratgan ijodkorlarning 80 foizi ijodida mifopoetika, mifologizm ustuvorlik qiladi.

Adabiyotshunos olim Qurdoş Qahramonov o’zining “Jahon adiblari Nazar Eshonqul talqinida” nomli maqolasida bu borada qimmatli fikrlarini bildirgan. “Muallif “meni”ga ega bo’lgan yoki o’z “men”ini namoyon qilolgan va o’ziga ruhan yaqin adiblar haqidagi qarashlarini bayon qiladi. ...Muallif yozuvchilar asarlarini talqin qilgan ekan, eng avvalo, botindan aks-sado berayotgan mohiyatga e’tibor beradi.” [3, 370]

Darhaqiqat, Nazar Eshonqulning dunyo adabiyoti va san’atiga bag’ishlangan bu ikki kitobini o’qib, adib jahon adabiyoti usullarining mohiyatini ochish barobarida bu usullarni o’zlashtirgan va milliy adabiyotimizga sintez qilish yo’llarini izlab topgan, deyishga to’liq asos bor. Shunga ko’ra, yozuvchi ijodining dastlabki bosqichidagi asarlarida G’arb adabiy-falsafiy qarashlari ta’siri baland bo’lgani seziladi.

E’tiborlisi, Nazar Eshonqul ijodida mifologizm alohida o’rin tutadi. Uning deyarli barcha asarlarida biz dunyo adabiyotida an’anaga aylangan mifologik yondashuvni yoki motivni ko’ramiz. Mifologizm - “Go’r o’g’li yoxud hayot suvi” [4, 303], “Urush odamlari” [5, 174], “Qora kitob” kabi roman va qissalarda; “Bahouddinning iti”, “Ajr”, “O’lik mavsum”, “To’zon” kabi hikoyalarda - motiv, syujet yoki arxetiplar ko’rinishida o’zini oshkora ko’rsatib tursa; “Tun panjaralari” qissasi, “Maymun yetaklagan odam”, “Og’riq lazzati”, “Tobut”, “Evolyusiya”, “Momoqo’shiq”, “Xayol tuzog’i”, “Zulmat saltanatiga sayohat” hikoyalarda - mifologizm muhit ko’rinishida namoyon bo’ladi. Bu asarlarda matn shakldagi mifemas, balki mifik formulalar, asar strukturasi aylangan mifologik muhit, mifologik dunyoqarashga duch kelamiz. Shuningdek, “O’lik mavsum”, “To’zon”, “Xayol tuzog’i” hikoyalari uslubida, tasviriy yondashuvida, voqelikni aks ettirishda va qahramonning voqelikni his etishida; “Og’riq lazzati”, “Evolyusiya”, “Zulmat

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

saltanatiga sayohat” hikoyalarida makon va zamondan holi yoki makon va zamon chegaralari buzilgan tarzda kabi XX asrda dunyo adabiyotida sinovdan o‘tgan va an’anaga aylangan mifologik usullardan keng foydalanilgan. Mazmun va falsafiy qiymatini chuqurlashtiradigan bunday asarlarning mifopoetikasini tahlil qilish zamonaviy nasrimiz badiiyati, poetikasi haqida to‘laqonli tasavvur beradi.

Adibning “Tobut” hikoyasini ilk o‘qigan davrimda voqealar tafsiloti va ifoda uslubi kuchli vahima uyg‘otgani rost. Keyinchalik adabiyotshunoslar tahlili asosidaga talqinlar asosida ushbu asar ham uslub, ham yondashuv, ham mavzu, ham davr, ham mifologik muhit fonida adibning o‘zbek adabiyotida dastlab shov-shuvlarga sabab bo‘lgan “Maymun yetaklagan odam” hikoyasiga yaqinligini tushunganman. Darvoqe, ushbu ikki hikoyaning qahramoni ham keksa ijodkor (biri rassom, biri me’mor). Hikoya mazmuniga ko‘ra o‘quvchi dastlab rassom chol kabi me’morni hikoyaning dastlabki sahifasida uchratmaydi, hatto uni, birinchi qarashda, e’tibor berilmaydigan bir epizodik obraz deyish ham mumkin. Umuman olganda, hikoyada shahar me’mori bor-yo‘g‘i ikki lavhada ko‘rinadi. Ammo hikoyaning dastlabki sahnalaridanoq o‘quvchi uning faoliyati va “ijodi” asoratlari bilan tanisha boshlaydi: chekka muzofotdagi shaharni xuddi epidemiya kabi sirli o‘lim og‘ushiga oladi...

Ana shu tasvirlardanoq muallif hikoyaga mifologik bo‘yoq bera boshlaydi. Keyinchalik o‘lim sabablarini tekshirishga jalb qilingan roviy tili bilan qadim miflardagi shahar tasvirlari beriladi. Bu makonda hamma narsa sirli va vahimali. Butun shaharni qo‘rquv qamrab olgan: bu zamonaviy qo‘nalg‘a emas, qandaydir qo‘rqinchli mifik makonga o‘xshaydi. Umuman, XX asr avangard adabiyotida bo‘lgani kabi, Nazar Eshonqul ijodida ham “makon” muhim rol o‘ynaydi. Boshqacha aytganda, voqelik sodir bo‘layotgan makonni va zamonni birdaniga anglab yetishning o‘zi qiyin. Adib iloji boricha “makon” va zamonni aniqlashtirmaydi: voqea ayni qaysi zamonda va qaerda bo‘layotganini yoki bo‘lgani haqida tushuncha ham, ma’lumot ham bermaydi. Aniqlik o‘rnini bugunni ham, o‘tmishni ham eslatib turadigan ishoralar, detallar bilan “makon va zamon” tushunchasini yanada xiralashtiradi.

Bunday yondashuv XX asr avangard adabiyotiga, xususan, modernistik ijodkorlarga xos xususiyat. Frans Kafka, Albert Kamyu, Semyuel Bekket, Ejen Ionesko, Jems Joys asarlarida ham voqea qachon va qaerda sodir bo‘layotganini daf’atan anglab yetish mushkul. Mifopoetikaning muhim jihatlaridan biri ham uning ko‘pma’noligi, har xil talqinga imkon berishi, zamon va makonsizligidir.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Adabiyotshunos A.Losev mifning bu xil xususiyati uning obrazli mushohada va obrazli tafakkur mahsuli ekani bilan bog‘liqdir, - deya fikr bildiradi. [6]

“Tobut” hikoyasida komissiya “O‘limning sababi epidemiya emas”, degan yakdil xulosaga keladi. Unda - nima? Ajal nega shaharni kundan kunga o‘z girdobiga tortayapti? Ana shunda roviy ko‘chada aqldan ozgan jinnini – bir paytlar shu shaharga me‘morlik qilgan, ya‘ni shu shaharning tamal toshini qo‘ygan, uning “asoschisi” bo‘lgan cholni uchratib qoladi. Ana shu uchrashuvdan so‘ng roviy chol qurgan shahar loyihasi, arxitekturasi bilan qiziqadi va shahar tarhi TOBUT shaklida chizilganini payqaydi. Roviylar shaharni og‘ushiga olgan o‘limning sababi “Shahar loyihasida, uning tobut shaklida qurilganida”, degan xulosaga keladi. Hikoyadagi o‘lim - mifologik qismat, mahkumlik tusini oladi.

Mantiqan olganda, shaharning tobut shaklida loyihalaniishi va shuning uchungina shaharliklarni ajal quvlab yurishi aqlga sig‘maydi. Ammo muallif badiiy shartlilikdan kelib chiqib, bunga o‘quvchini ishontiradi: shahar – tuzum, muhit - timsoliga aylanadi. Bu tuzumni va muhitni “me‘mor” tobut shaklida barpo etgan. Bu shahar avval-boshdonoq o‘limga mahkum etilgan. Ana shundagina shaharliklar uchun shunchaki aqldan ozgan chol deb tanilgan qariya ko‘z oldimizda yovuz niyatli “Ma‘buda” qiyofasiga kiradi.

Muallif hikoyada chol, aslida sobiq ittifoq mafkurasi yaratgan “mif” bilan yashayotgan o‘z zamondoshlari uchun shafqatsiz hukm chiqaradi. Bu qariyaga o‘xshagan ma‘budsifat daholar loyihasini chizgan, qurib bergan “davlat” o‘limga mahkumdir. Uni ajal qo‘lidan, tanazzuldan hech narsa saqlab qololmaydi. Chunki u boshidayoq tabiatga qarshi, yovuz niyat bilan qurilgan, o‘lim uning taqdiriga guyoki tavqi lan‘at bo‘lib yozilgan. Shahar hayotga, tiriklikka emas, ajalga xizmat qilish uchun mo‘ljallangan. Yovuz niyat bilan qurilgan makon – faqat yovuzlikka xizmat qiladi. Shu jihatni eslatish joizki, bu hikoya ham hali ittifoq tuzumi amalda bo‘lgan davrda, ya‘ni 1989 yilda yozilgan va respublika matbuotida nashr etilgan(!).

Shu ma‘noda, yozuvchi Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasi “Maymun yetaklagan odam” hikoyasining davomi bo‘lib, faqat uning boshqa jihatdan tasvirlangan ko‘rinishi, deyish mumkin. Shuning uchun har ikkala asardagi rassom va me‘mor aslida bitta shaxs. Ularning ikkalasi ham ijodkor, ikkalasi ham “yaratishga da‘vogar”, ammo ularning ijodi yovuzlikka – Iblisga xizmat qiladi. Bu ikki chol yetmish yildan beri millatlarni va Inson degan ulug‘ zotni, uning erki va hurligini asoratda tutib kelayotgan tuzumining odam qiyofasidagi ko‘rinishidir. Ikkala

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

hikoyadagi tabiat qonunlariga isyon qilib, yashayotgan rassom va aqldan ozgan me'morga qarab, shunday xulosa chiqarish mumkin.

Albatta, har ikkala hikoyadan faqatgina ijtimoiy ma'no izlash, shu bilan cheklanish bir yoqlamalik, asarning mohiyatini pasaytirish bo'lardi. Zero, adibning o'zi xuddi “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi kabi “Tobut” hikoyasini ham hayotning qadriga yetmaganini, umrini sarob bilan o'tkazganini yoshi bir joyga borib qolgach anglagan, bundan behad iztirobga tushgan, ortiga qarab, umr degan qo'rg'onni boshidayoq noto'g'ri rejalashtirgani va qurganini tushunib yetgan, shu tufayli aqldan ozgan oddiy bir odamning emotsional dunyosi, o'z hayot yo'li haqida ruhiy iztiroblari ramzi sifatida sharhlaydi. [1, 207]

Bu – tabiiy. Adabiyotshunos olim A.Losev ta'kidlagan fikrga ko'ra, mifologizm bilan sug'orilgan asarlar turlicha sharhga, turlicha talqinga imkon beradi. Uni har kim o'z dunyoqarashi va saviyasidan kelib chiqib sharhlashi, tushunishi mumkin. Buning sababi shuki, mifologizm – bu timsollar tili degani. Timsol esa keng va turlicha talqinga imkon bera oladi. Bu haqda A.Losev shunday yozadi: “...mif sxema ham, allegoriya ham emas, u timsoldir. Timsol bo'lganda ham juda murakkab, keng qatlamli timsol.” [6, 21]

“Tobut” hikoyasiga qaytadigan bo'lsak, ushbu hikoyaga xos mifni asarning konstruksiyasiga singdirib yuborish usuli keyinchalik yozuvchi Nazar Eshonqulning “Go'r o'g'li yoxud hayot suvi” romanida ham seziladi. Zero, “tobut”, “go'ro'g'li” so'zlari ma'no jihatdan bir-birlariga juda yaqin. “Tobut” hikoyasida voqelik chetdan kuzatilgan bo'lsa, “Go'r o'g'li...” romanida endi ichdan kuzatiladi, ya'ni romanga o'linga mahkum etilgan “shahar”da yashovchi N. degan yigit qahramon qilib olinadi. N. roman davomida o'zini tirik deb hisoblashlari uchun kurashadi, biroq u o'zining hujjatlari anglashilmovchilik sababli o'lgan boshqa odamning cho'ntagiga tushib qolganiga “byurokrat”, “qog'ozxo'r” kimsalarni ishontira olmaydi. Oxir-oqibat “tobut”, “lahad” ko'rinishidagi shaharning qurboniga aylanadi.

Yozilishi xronologiyasiga ko'ra, “Maymun yetaklagan odam”, “Tobut” hikoyalari bilan oldinma-ketin yaratilgan “Ajr” hikoyasi ham o'ziga xos mifologik yechimda tasvirlangani bilan e'tiborlidir. Umuman olganda, dastlabki o'qishda “Ajr” yuqoridagi hikoyaning davomiday taassurot qoldiradi. Faqat endi voqelik bu dunyoda emas, o'liklar va arvohtar dunyosiga ko'chadi: o'zini zamon va tuzum xizmatiga bag'ishlab, juda ko'p qabihliklar qilgan “qahramon”ning endi ajr vodiysidagi, o'limdan keyingi “hayoti” hikoya qilinadi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Hikoya dunyo adabiyotining eng og‘ir mavzularidan biri – padarkushlikka bag‘ishlangan. Padarkushlik antik davr faylasufi Safokl zamonidan buyon adabiyotni larzaga solib keladi. “Ajr”dagi padarkushlikning Sofokl qalamga olgan padarkushlikdan farqi shuki, Edip o‘z otasini bilmasdan, taqdir hukmi bilan o‘ldirib qo‘yadi. Nazar Eshonqul qahramoni esa bilib turib, anglab turib, padarkushlik qiladi: go‘yo bu bilan Edip zamonidan buyon insoniyat nimaga yetib kelganiga ishora qiladi. Kommunist o‘g‘il ijtimoiy kelib chiqishi va yangi e‘tiqodga qarshi bo‘lgan qarashlari bilan o‘zining martabasiga xalaqit beradigan otasini xuddi Edip otasini tayoq bilan urib o‘ldirgani kabi qoyadan itarib yuborib o‘ldiradi. Edip ham, “Ajr”dagi o‘g‘il ham otalarini bitta makonda – tog‘da o‘ldiradi. Bu bilan muallif o‘z asaridagi motivning ildizini ko‘rsatib bergandek, hikoyani “Shoh Edip” mifologiyasi makoniga olib kirgandek bo‘ladi. Shu bilan birga har ikki qahramonning qismati bir xil, mohiyat bitta, har ikki holatda ham ota, o‘g‘ilga jon ato etgan zot o‘ldirilayapti. “Ajr” hikoyasining eng muhim va eng asosiy nuqtasi ham mana shu yerda: Yaratgan zot o‘ldirilganida. Hamma fojia ana shu nuqtadan boshlanadi. Arvoh ota padarkush o‘g‘liga bu haqda shunday deydi: “Sizlarning katta xatolaring shuki, Uni ta‘qib qildilaring. Unga qo‘shib, hamma narsani ta‘qib qildilaring. Aslida hamma narsaning boshlang‘ichi U edi. Chunki U dunyoning ismi edi, U bu azaliy dunyoga ism bergan, zeb bergan usta edi. Dunyoni Undan ajratib olib bo‘lmasdi... Sizlar buni tan olmadilaring...”[8]

Hikoya bayon usuliga ko‘ra, boshqa hikoyalardan keskin farq qiladi: endi mazkur hikoya bayonida bitta roviy emas, manqurt amaldorning qilmishi, bu bilan faqat amaldorning emas, butun bir tuzumning fojiasi, qiyofasi bir nechta ovoz – arvohlarning hikoyasi – mifologemalar orqali ochib beriladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Nazar Eshonqul mifologemalardan (mifologema - arxetipning turli xil birikma va modifikatsiyalari doimiy yadrosi) mahorat bilan foydalanganki, arvohlarning hikoyasi asarga mifik ruh, mifik makon, mifik ma‘no bag‘ishlab turuvchi asosiy unsurlardan biriga aylangan. Gapiruvchi arvohlarning o‘limiga ham ana shu “amaldor” sababchi bo‘lgan. U otasi bilan qo‘shib, kim o‘ziga qarshi bo‘lsa, kim uning boshqaruv usulidan norozi bo‘lsa, kim erkin va mustaqil bo‘lsa, ularni o‘limga hukm qilgan. Hatto ko‘zlari tug‘ma ojiz qizni zo‘rlashdan ham qaytmagan.... Ana endi o‘limidan so‘ng uni Ajr vodiysida arvohtar kuzatib borayapti. Ularning har birida amaldor bilan o‘z hisob-kitobi bor. Uzun va olis yo‘lda u o‘ldirgan yoki o‘limiga sababchi bo‘lgan arvohlarning hammasi yelkasiga chiqib oladi, u esa ana shu arvohlarni toki Duzax darvozasigacha ko‘tarib borishga majbur. “...Yo‘lning

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

intihosi ko‘rinmasdi. Ship-ship etgan qadam tovushlari eshitar, ular ketayotgan yo‘lga yulduzlar uchib tushardi. O‘g‘il yurib borar, ota esa uning yelkasida yalpayib o‘tirgancha yo‘lning adog‘iga tez-tez ko‘z tashlardi. Aftidan, u ham o‘g‘ilning yelkasida o‘tiraverib charchagandek edi. Yo‘l kesib o‘tgan dala esa huvillab yotardi, atrof ularning sharpasidan kukunday to‘zg‘ib ketayotgan kuyindi suyaklar bilan to‘lgandi; tong go‘yo bu yerlarga tashrif buyurishni unutib qo‘yganday ularning ustida besarhad tun sim-simi to‘shalib yotardi. Yo‘l esa benihoya edi...” [8]

Asar bir qarashda mistik hikoyaga o‘xshaydi. Afsuski, bu hikoyani tahlil qilgan aksariyat adabiyotshunoslar asosan asarning mistik jihatiga urg‘u bergan holda, uning mifologik poetikasiga e‘tibor qaratishmagan. Hikoyada ko‘tarilgan muammo yaqin o‘tmishga, xususan, amal, martaba, g‘oya uchun o‘z otasini, o‘z Vatanini, o‘z xalqini sotgan davrlarni va shunday tuzum manqurtlarini esga soladi-ki, Nazar Eshonqul asaridagi padarkushi mohiyatan Chingiz Aytmatov asaridagi “manqurt”ning aynan o‘zi. Shu sababli padarkushlikning mohiyatini anglash uchun bu yerda Ch.Aytmatovning “manqurt” obraziga Nazar Eshonqulning bergan bahosini keltirish o‘rinli: “Manqurt uchun xudo – uning xo‘jayini! U o‘zining ismini ham, naslini ham, kimligini ham bilmaydi: xuddi it kabi sohibning har bir imo-ishora, buyrug‘ini kutib turadi va imo bo‘lishi bilan so‘zsiz bajaradi. Umuman, u insonga xos bo‘lgan barcha fazilatlardan mahrum qilingan odambashara maxluq. Onasini “Sening oting Jo‘lomon” degani, ya‘ni unga asli kimligini, zoti-zurriyatini bildirgani uchun otib qo‘yadi. Bundan zarracha og‘rinmaydi, aksincha, “burchimni bajardim”, deya o‘zidan g‘ururlanadi. O‘tmishi yo‘q odam – bu zamonaviy quldir,” - deydi Nazar Eshonqul “Xotira va kelajak mas‘uliyati” maqolasida. [1, 207]

Adibning “manqurt” obraziga bergan bahosi – bu “Ajr” hikoyasidagi padarkushga berilgan baho ham deyish mumkin.

Muhitning tanazzuli hikoyaning shakliga, uning ko‘povozliliga singdirilgan. Adib xuddi qadimgi ertaklar va miflar kabi o‘quvchi tasavvurini narigi dunyoga – o‘liklar dunyosiga yetaklab boradi. Umuman, asar tiriklar dunyosidagi emas, o‘liklar dunyosidagi – padarkushlik qurboniga aylangan ota, qotil o‘g‘ilning qilmishi va yovuzligi qurboni bo‘lgan arvohlar, zo‘rlilik, zulm, qabohat qurbonlari – o‘liklar tilidan hikoya qilinadiki, bu shartlilik o‘g‘il yaratgan muhitning fojiasini, manzarasini, ma‘naviy qiyofasini yanada yaqqolroq, to‘laqonliroq, jonliroq namoyon qiladi va aslida mistik bo‘lgan motivni universal motivga aylantira oladi.

Jahon tadqiqotchilari mistik mifologizm asar poetikasini boyitishga, uning ma‘nosini va ta‘sirini, voqelikni to‘liq ko‘rsatishdagina emas, balki, XX asr ma‘naviy

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

dunyosini ochishda ham eng maqbul shartlilikdan biri ekanini ta’kidlaydi. Xususan, Tomas Eliotning asarlari deyarli mistik mifologizmi bilan sug‘orilganiga e’tibor qaratadi. Nazar Eshonqul T.Eliot ijodi haqidagi essesda shunday fikr bildiradi: “Eliot hayotning bema’niligi, Xaos va bo’shliq masalalariga o‘z avlodi kabi javob izlaydi va inson hayotining bema’niligiga asosiy sababi uning xudodan yuz o‘girgani, degan xulosaga keladi. Yaratganga ishonmaslik insonni o‘zidan va o‘zligidan, mohiyatidan, ibtidosidan mahrum qiladi. Ibtidodan uzilish – insonni xaosga, bo’shliqqa qarab boshlab boradi. Tomas Eliot imon-e’tiqodsiz hukm surgan qalbni shayton egallaydi, deydi. Bu gaplar amru ma’ruf tarzida emas, balki asarlarida Ezgulik va Yovuzlikning inson qalbini zabt etish uchun kurashi shaklida talqin etiladi. Qaysi qalb o‘z Yaratganiga ishonmay qo‘ygan bo‘lsa, o‘sha yerda yovuzlik in qurayapti, yovuzlik o‘ziga saltanat tayyorlayapti. Xudo va Iblis kurashi – bu asli azaliy Yovuzlik va Ezgulik kurashidir. Shuning uchun ham dinning asl maqsadi inson qalbini yovuzlikdan, uning asoratlaridan himoya qilishdir. Iblis esa ko‘rinmas shakllarda, usullarda, jim-jimalar, aqlni sehrlab qo‘yadigan zamonaviy an’analar, yangi qadriyatlar, davrga xos tutumlar, qarashlar qiyofasida, inson qalbiga kirib oladi, uni asta-sekin asosidan ajratib olib, halokatga boshlaydi”, [1] deb izohlaydi.

Nazar Eshonqulning adib ijodidagi mistik mifologizm haqidagi ayni tahlilini o‘zining “Ajr” hikoyasiga ham taalluqli deyish mumkin. Biz bejiz bu iqtibosni keltirmadik. Adibning biz ko‘rib chiqqan uch hikoyasi davrga, zamonga, muhitga, insonga bo‘lgan qarashlari o‘zaro hamohang. Gap shundaki, Nazar Eshonqul asarlarida ko‘tarib chiqilgan muammolar, jamiyat va muhitning o‘ta fojiali manzaralari, xulosalar ildizini o‘tgan asr oxirda jamiyatning, ziyolilarning dunyoqarashi va jamiyatga bo‘lgan munosabatlaridan izlash kerak bo‘ladi. Bu asrga xos ma’naviy tanazzullarni, insonni ommaviy tarzda qul va mute qilishga urinishlarni hisobga olib, A.Losev mifni yangi davrning ijtimoiy ehtiyoji sifatida talqin qiladi. [6] Olimning fikriga ko‘ra, tarixni siyosat ham, fan ham, din ham, aql-idrok ham, san’at ham boshqarolmay qoldi: endi boshqaruvni tayini yo‘q ta’limotlardan va qilichida qon tomgan, imon-e’tiqoddan xoli abadiylikka davo qilgan dohiylardan iborat mifologik kuchlar boshqara boshladi.

Адабиётлар:

1. Назар Эшонкул. “Ижод фалсафаси – “Мендан “мен” гача-2” “Академнашр” 2018 й. 207 б.
2. Назар Эшонкул. “Мендан “мен”гача. “Академнашр” Т., 2014 й.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

3. “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция материаллари. “Mashhur-press”, Т., 2018 й., 370 бет.
4. Назар Эшонкул. “Гўр ўғли ёхуд ҳаёт суви” Т., Гафур Гулом NMIU. 2018 йил. –Б 303.
5. Назар Эшонкул. “Уруш одамлари” Т., Очун. 2021 йил. –Б 174.
6. Лосев А.Ф. Диалектика мифа [Электронный ресурс]. www.koob.ru/books/dialektika_mifa.rar.
7. Лосев А.Ф. Проблема символа и реалистическое искусство / А.Ф. Лосев. – М.: Искусство, 1995 г.
8. Назар Эшонкул. Ялпиз хиди. “Шарқ” нашриёти. 2008 йил.